

**KLASTER VA CHALKASHTIRILGAN MANTIQIY ZANJIRLAR KETMA-
KETLIGI" INTERFAOL USULLARIDAN FOYDALANIB O'ZBEK TILINI
O'QITISH**

Xummedova O'g'ilnavot Mavlanberdiyevna

Nukus davlat pedagogika instituti 4-kurs talabasi


Ta'lrim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning ikkinchi bo'g'inida davlat tili - o'zbek tilining o'qitilishi juda katta ijtimoiy, ma'naviy ahamiyatga molik masalalardan biri sanaladi. Uning ijtimoiy, ma'naviy ahamiyati shundaki, o'zbek tilini bilgan o'quvchi ertangi mustaqil turmushga dadil qadam tashlaydi, ayni vaqtida muloqot chegarasi kengayadi; jamiyatda o'zining munosib o'rmini egallaydi, uning ma'naviy olami kengayadi. U nafaqat o'z xalqining o'tmishi, urf-odatlari, an'analari, badiiy adabiyoti namunalari bilan tanishadi, balki o'zbek xalqi, uning boy tarixiy o'tmishi, badiiy adabiyotini ham bilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Natijada, har ikki qardosh xalqning do'stlik rishtalari mustaqamroq bog'lanadi, ularning o'tmishi, urf-odatlari, an'analari orasida juda ko'p mushtarakliklar va o'ziga xosliklar borligini bilib oladi. Ta'lrim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablarning ikkinchi bo'g'inida "O'zbek tili" o'quv fanini o'qitishdan ko'zlanadigan asosiy maqsad o'quvchilarni qoraqalpoq tili bilan bir qatorda O'zbekiston Respublikasining davlat tili - o'zbek tilida muloqot qilish, ish yuritishga tayyorlashdir.

Xullas, "O'zbek tili" o'quv fanidan boshlang'ich sinflarda egallangan bilimlar 5-sinfda poydevor vazifasini o'taydi. SHuning uchun boshlang'ich sinf o'qituvchisi 5-sinfda ularni nimalar kutayotganligi, aksincha, 5-sinf o'qituvchisi esa boshlang'ich sinfda nimalar o'rgatilayotganligini yaxshi bilishi lozim.

Klaster (Klaster-tutam, bog'lam) – axborot xaritasini tuzish yo'li; barcha tuzilmaning mohiyatini markazlashtirish va aniqlash uchun qandaydir biror asosiy omil atrofida g'oyalarni yig'ish. Grafik organayzerning turi, ahamiyati va xususiyatlari: bilimlarni faollashtirishni tezlashtiradi, fikrlash jarayoniga mavzu bo'yicha yangi o'zaro bog'lanishli tasavvurlarni erkin va ochiq jalb qilishga yordam beradi.

O'quv faoliyatini tashkillashtirishning jarayonli tuzilmasi:

- 1) o'quvchilar klasterni tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Yozuv taxtasi yoki katta qog'oz varag'ining o'rtafiga asosiy so'z yoki 1-2 so'zdan iborat bo'lgan mavzu nomi yoziladi;
- 2) birikma bo'yicha asosiy so'z bilan uning yonida mavzu bilan bog'liq so'z va takliflar kichik doirachalar "yo'ldoshlar" yozib qo'shiladi. Ularni "asosiy" so'z bilan chiziqlar yordamida birlashtiriladi. Bu "yo'ldoshlarda" "kichik yo'ldoshlar" bo'lishi mumkin. Yozuv ajratilgan vaqt davomida yoki g'oyalar tugagunicha davom etishi mumkin.



3) muhokama uchun klasterlar bilan almashinadilar.

Klasterni tuzish qoidasi:

1. Aqlingizga nima kelsa, barchasini yozing. G'oyalari sifatini muhokama qilmang faqat ularni yozing.
2. Xatni to'xtatadigan imlo xatolariga va boshqa omillarga e'tibor bermang.
3. Ajratilgan vaqt tugaguncha yozishni to'xtatmang. Agarda aqlingizda g'oyalar kelishi birdan to'xtasa, u holda qachonki yangi g'oyalar kelmaguncha qog'ozga rasm chizib turing.

CHALKASHTIRILGAN MANTIQIY ZANJIRLAR KETMA-KETLIGI" INTERFAOL METODI

"Ta'lism metodlari" mavzusi bo'yicha amaliy mashg'ulot o'tkazilayapti, deylik. Dastlab o'qituvchi doskaga ta'lism metodlarni chalkashtirilgan holda yozib qo'yadi. So'ngra, ulardan mazkur metodlarni qaysi guruhg'a kirishiga qarab, og'zaki, ko'rgazmali va amaliy metodlarga tasniflashni taklif etadi.

Masalan: ota-onal, hovli, duradgorlik, Ishchi, zargar, paxtakor, chorvador, bog'bon, etikdo'z, soatsoz, dorboz, oshpaz, Rahim Alimov, Olapar, Toshkent, Amudaryo, „Turkiston“ saroy, Oybek, Toshkent shahri, „G'uncha“ jurnali, hunar, shahar, odam, mak

tab, parta, o'quvchi,

Turdosh otlar	Atoqli otlar	Shaxs otlar
ota-onal, hovli, duradgorlik, hunar, shahar, odam, maktab, parta, o'quvchi	Rahim Alimov, Olapar, Toshkent, Amudaryo, „Turkiston“ saroy, Oybek, Toshkent shahri, „G'uncha“ jurnali,	Ishchi, zargar, paxtakor, chorvador, bog'bon, etikdo'z, soatsoz, dorboz, oshpaz,

Bu ikkala usuldan mustahkamlash darsidan foydalanilsa ham juda o'rinnlidir. Chunki bu usul mavzularni umumiy esga tushirishga yordam beradi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. G'ulomov A. Ona tili o'qitish tamoyillari va metodlari. Toshkent. «O'qituvchi», 1998 yil.
2. S.Nazarova. O'zbek tilini o'qitish metodikasi. (Ta'lif boshqa tilda olib boriladigan guruqlar uchun.) Toshkent., «O'qituvchi» 1992 yil.
3. A.G'ulomov. M.Qodirov. Ona tilini o'qitish metodikasi. Toshkent., Universitet. 2001.
4. SH.Bo'ronova. «Ta'lif qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablarning 5-sinflarida o'zbek tilini o'qitishning metodik asoslari» mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasiga yozilgan avtoreferat. Toshkent 2002 yil.